



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.**

Таҳририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Таҳририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

Ғолиб Султонмуродович Мустафоев Қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш	80
Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati	85
Askar Axrorovich Siddikov, Ahmadbek Nizomiddinovich Najmiddinov Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishlari	87
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Muslimaxon Xolmatjon qizi Soxibova O‘zbekistonda ziyorat turizmi resurslarini samarali boshqarishning nazariy asoslari	90
Murodjon Rajabbayevich Matniyozov Methodological bases of formation of tourism image of the Khiva destination	96
Kamol Sharifovich Yuldashev Mustaqil turizm rivojlanishining evolyutsiyasi	100
Ўткир Дўснаевич Ражабов Ўзбекистонда диний туризм ривожланишининг салоҳияти ва истиқболлари	106
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Gulnora Mardiyevna Shadiyeva Ra‘no Akbar qizi Qulmurodova Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik – aholi turmush darajasini oshirishning bir omili sifatida	110
Saodat Toxirovna Toshaliyeva Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish holati tahlili	114
Имомназар Эгамбердиевич Турсунов, Кермен Антоновна Наминова, Тулкин Саидахмедович Шарипов Развитие малого и среднего бизнеса в условиях цифровой экономики	118
Гулнора Мардиевна Шодиева, Дилноза Азаматовна Тоғаева Хизматлар кўрсатиш соҳасида оилавий корхоналарни ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш	123
Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda Inson tadbirkorlik qobiliyatini baholash maqsadida uning sifat xususiyatlarini tasniflash	130
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruv samaradorligini oshirish	134
Shahlo Akramovna Maripova Modern digital tools in small business management	138
Bekzodjon Oblakulov, Shakhnoza Narkulova Marketing Analysis of International Brand in the Case of Borjomi	143
Абдухолик Эгамович Тангиров Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида корхона бошқаруви ва уни ташкил этишининг моҳияти	147
Зулфия Мусаевна Усманова Перспективные направления совершенствования механизма управления персоналом	151
ИНВЕСТИЦИЯ	
Jahongir Ravshanbek o‘g‘li Hoshimov Yangi O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb etish holatining kompleks tahlili	155

7. Хамидуллин Ф.Ф. Развитие методологии исследования малого бизнеса. // «Проблемы современной экономики», 2007, №3(19).
8. Хаит М.М. Развитие малого бизнеса на основе реструктуризации крупных предприятий. // Вестник Московского университета, сер. 6. Экономика, 2006, №4. –С. 32-43.
9. Муфтайдинов Қ. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида тadbirkorlikni rivojlanishi muammolari. / Дис. ... икт. фан. д-ри. - Т/, 2004. -18-б.

<p>Г.Шадиева, Р.Кулмурадова Малый бизнес и семейное предпринимательство в условиях цифровой экономики как фактор повышения уровня жизни населения</p>	<p>G.Shadieva, R.Kulmuradova Small business and family entrepreneurship in the conditions of the digital economy as a factor in raising the standard of living of the population</p>
<p>Аннотация: в данной научной статье освещены семейное предпринимательство, его содержание, правовые основы организации семейного предпринимательства, информация о путях развития семейного предпринимательства и повышения семейного благосостояния. Кроме того, есть предложения по развитию семейного бизнеса в нашей республике в условиях цифровой экономики.</p> <p>Ключевые слова: цифровая экономика, семейный бизнес, семейное благосостояние, сокращение бедности, инвестиции, технологии, инновации, модернизация.</p>	<p>Abstract: in this scientific article, family entrepreneurship, its content, legal basis of organizing family entrepreneurship, information on ways to develop family entrepreneurship and increase family well-being are covered. In addition, there are proposals for the development of family business in our republic in the context of the digital economy.</p> <p>Keywords: digital economy, family business, family welfare, poverty reduction, investment, technology, innovation, modernization.</p>

Saodat Toxirovna Toshaliyeva – Termiz davlat universiteti “Biznes va boshqaruv” kafedrasini mudiri, PhD, mustaqil tadqiqotchi

MAMLAKATIMIZDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH HOLATI TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish xususiyatlari, afzalliklari, zarurati yoritilgan va uning holati tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: tadbirkorlik, kichik tadbirkorlik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, iqtisodiyot tarmoqlari, hudud.

Kirish. Bugungi kunda xususiy sektor va tadbirkorlikning rivojlanishi islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan yangi jarayonga aylandi. Bu borada aholining faolligi zamonaviy texnologiya va turli sohalarida ishlashga qiziqishlari ham ortib bormoqda. Chunki, iqtisodiyotda kundan-kunga yangi yoʻnalish va sohalar yaratilmoqda. Ayniqsa, xususiy tashabbuslarni kengaytirish va ular uchun yangi istiqbolli turlarini yaratish tizimli boshqaruvni taqozo qiladi. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida taʼkidlanidek, “Agar jami 750 mingta yangi dehqon xoʻjaligini tadbirkorga, yer egasiga aylantira olsak, qishloqda juda koʻp ijtimoiy muammolar, avvalo, ishsizlik va kambagʻallik masalasi yechiladi” [1]. Darhaqiqat, mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish oʻziga xos istiqbolli soha boʻlib hisoblanadi. Shu bois, ushbu sohaning rivojlanish holatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maʼlumki, mamlakat va uning hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi ishlab chiqarish va ijtimoiy soha rivojlanish natijalarini ifodalovchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Kichik tadbirkorlikning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qoʻshgan hissasi va tahlili A.Y.Kremin tomonidan oʻrganilgan [4]. Ayrim tadqiqotlarda kichik tadbirkorlikni hududiy rivojlanish dinamikasiga taʼsirini baholashda kichik

tadbirkorlik samaradorligini baholashning ko'p omilli regression tahlil tenglamasidan foydalanilgan [5]. O.N.Bulakina davlat va mahalliy hokimiyat idoralarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlab chiqilgan davlat dasturlari samaradorligi va ularning tadbirkorlik salohiyatini oshirishga qo'shgan hissasini baholashda kichik tadbirkorlikning holati va rivojlanish holatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan foydalanish yuqoriligini ta'kidlaydi [6]. P.L.Gluxix esa ilmiy tadqiqotlarida hududlarda tadbirkorlik salohiyatidan foydalanish samaradorligi natijaviyligini oshirish bo'yicha uslubiy yondashuvni taklif etadi [7]. Unda tadbirkorlik salohiyatini shakllantirish shart-sharoitlari, shakllanish jarayoni, rivojlantirish bosqichlari va holatlari o'rganilgan.

Ushbu soha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi shular qatoriga kiritilib, uni mamlakatimizda keng rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda shu asosda aholi turmush farovonligini yaxshilashdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Shu sababli, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimiz hukumati iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kichik tadbirkorlik mamlakat va uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qilib, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholi ish bilan bandligi ta'minlanishi, tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab qondirilishi va aholi turmush farovonligi oshirilishiga olib keladi [2]. Kichik tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, u jamiyatda vujudga kelayotgan ko'pgina ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda ham muhim rol o'ynaydi. Kichik tadbirkorlik aholi qatlamlarini faol iqtisodiy jarayonlariga keng jalb etish orqali mamlakatdagi ishsizlik muammolarini bartaraf etish, raqobat muhitini yaxshilash, monopoliyaga barham berish va kichik mulk egalari sinfini shakllantirish hamda jamiyatda o'rta mulkdorlar sinfini yaratish uchun muhim shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish holati tahlilini amalga oshirish borasida tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va abstrakt fikrlash kabi usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish ustuvor vazifa hisoblanib, bu bo'yicha ko'pgina kichik korxonalar, mikrofirmalar takshil qilindi, shuningdek xususiy tadbirkorlarning soni ham ko'payib bormoqda. Kichik tadbirkorlik sohasi o'z ichiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sifatida faqat faoliyat ko'rsatishi va xodimlari soni jihatidan cheklangan subyektlarini oladi. Shunga ko'ra, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyot tarmoqlarida muhim o'rinni egallab, sanoat ishlab chiqarishda, qurilish ishlarini bajarishda, aholi bandligini ta'minlashda, eksport va import hajmini oshirishda, savdo, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasini rivojlantirishda, xizmatlar ko'rsatishda, yuk tashish va uning aylanmasi hajmini oshirishda, yo'lovchi tashish va uning aylanmasi hajmini oshirishda muhim ustuvor sohaga aylanib bormoqda (1-jadval).

1-jadval.

2000-2022-yillarda mamlakatimiz kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari [8]

Ko'rsatkichlar	2006-y.	2008-y.	2010-y.	2012-y.	2014-y.	2016-y.	2018-y.	2020-y.	2022-y.	2022-yildan 2006-yilga nisbatan o'zgarish
Sanoat (mlrd.so'm)	1589,3	3489,5	10132,9	17114,6	30907,0	50654,5	87962,0	103020,8	143892,7	142303,4
Qurilish (mlrd.so'm)	1009,8	2090,0	4163,2	7925,5	13944,9	19671,0	37451,7	63866,6	93554,5	92544,7
Bandlik (ming kishi)	7234,1	8071,1	8643,9	9239,7	9950,8	10397,5	10128,8	9865,7	10131,1	2897
Eksport	714,6	1419,8	1782,8	1910,5	3657,8	3139,2	3810,8	3100,9	5712,9	4998,3

(mln.AQSh.dol)											
Import (mln.AQSh.dol)	1633,5	3460,4	3287,9	4946,0	6352,6	5676,8	10916,2	10943,3	15213,6	13580,1	
Savdo (mlrd.so‘m)	6638,2	10724,2	18616,1	32242,9	50197,8	78935,6	114896,4	164106,1	229166,7	222528,5	
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (mlrd.so‘m)	7089,8	11052,1	31900,4	56926,6	82957,2	118011,4	191759,2	253238,2	344134,5	337044,7	
Xizmatlar (mlrd.so‘m)	x	8534,7	15214,1	24841,8	40187,9	61346,2	84433,4	114052,7	181245,0	-	
Yuk tashish (mln.tonna)	187,3	315,3	255,2	304,3	416,1	538,6	611,7	638,9	608,2	420,9	
Yuk aylanmasi (mln.tonna-km)	10393,0	15700,9	6084,5	7271,9	8632,9	10072,4	11657,7	12304,6	14843,8	4450,8	
Yo‘lovchi tashish (mln.yo‘lovchi)	2803,0	4017,8	3084,5	3687,9	4224,5	4866,5	5242,6	4904,8	5628,4	2825,4	
Yo‘lovchi aylanmasi (mln.pass.km)	33902,0	47252,6	67874,1	80210,0	93024,7	107789,7	115335,2	107766,7	124433,9	90531,9	

Mazkur jadval tahliliga ko‘ra, 2006-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 1589,3 mlrd.so‘mga (2022-yilda 143892,7 mlrd.so‘m), qurilish ishlari hajmi 1009,8 mlrd.so‘mga (2022-yilda 93554,5 mlrd.so‘m), bandlik ko‘rsatkichi 7234,1 ming kishiga (2022-yilda 10131,1 ming kishi), amalga oshirilgan eksport hajmi 714,6 mln.AQSh.dollarga (2022-yilda 5712,9 mln.AQSh.dollar), amalga oshirilgan import hajmi 1633,5 mln.AQSh.dollarga (2022-yilda 15213,6 mln.AQSh.dollar), savdo hajmi 6638,2 mlrd.so‘mga (2022-yilda 229166,7 mlrd.so‘m), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi hajmi 7089,8 mlrd.so‘mga (2022-yilda 344134,5 mlrd.so‘m), yuk tashish hajmi 187,3 mln.tonnaga (2022-yilda 608,2 mln.tonna), yuk aylanmasi hajmi 10393,0 mln.tonna-km.ga (2022-yilda 14843,8 mln.tonna-km.), yo‘lovchi tashish miqdori 2803,0 mln.yo‘lovchiga (2022-yilda 5628,4 mln.yo‘lovchi) va yo‘lovchi aylanmasi hajmi 33902,0 mln.pass.km.ga (2022-yilda 124433,9 mln.pass.km.) to‘g‘ri kelgan. Ammo, 2006-yilda xizmatlar ko‘rsatish amalga oshirilmagan.

2022-yildan 2006-yilga nisbatan o‘zgarish mos ravishda sanoatda 142303,4 mlrd.so‘mga, qurilishda 92544,7 mlrd.so‘mga, bandlikda 2897,0 ming kishiga, eksportda 4998,3 mln. dollarga, importda 13580,1 mln. dollarga, savdoda 222528,5 mlrd.so‘mga, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 337044,7 mlrd.so‘mga, yuk tashishda 420,9 mln.tonnaga, yuk aylanmasida 4450,8 mln.tonna-km.ga, yo‘lovchi tashishda 2825,4 mln.yo‘lovchiga, yo‘lovchi aylanmasida 90531,9 mln.pass.km.ga teng bo‘lgan. Ushbu jadval ma‘lumotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi 2000-2002-yillarda kichik va o‘rta biznes, deb nomlangan. 2010-2019-yillar uchun berilgan ma‘lumotlarga aniqlik kiritilgan, ya‘ni qayta baholab chiqilgan. Mazkur ma‘lumotlarni hisobga olgan holda keltirilgan.

Shuningdek, mamlakatimizda 2000-2022-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi quyidagi dinamik jihatlarga ega bo‘ldi (2-jadval).

2-jadval.

2000-2022-yillarda mamlakatimiz kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, umumiy hajmga nisbatan % da [8]

Ko‘rsat- kichlar	2000- y.	2002- y.	2004- y.	2006- y.	2008- -y.	2010- -y.	2012- -y.	2014- -y.	2016- -y.	2018- -y.	2020- -y.	2022- y.	2022-yildan 2000-yilga nisbatan o‘zgarish
YaIM	31,0	34,6	35,6	42,1	48,2	60,8	60,8	61,9	66,8	62,4	54,8	51,8	+20,8
Sanoat	12,9	15,4	11,0	10,9	14,6	26,6	29,7	36,8	45,3	37,4	27,9	26,0	+13,1
Qurilish	38,4	42,0	49,6	52,1	58,4	52,5	70,0	69,5	66,9	73,2	72,5	71,5	+33,1
Bandlik	49,7	53,5	60,3	69,1	73,1	74,3	75,6	77,6	78,2	76,3	74,5	73,9	+24,2
Eksport	10,2	7,5	7,3	11,2	12,4	13,7	14,0	27,0	26,0	27,2	20,5	29,6	+19,4
Import	22,8	24,9	32,7	34,2	35,7	35,8	38,6	45,4	46,8	56,2	51,7	49,4	+26,6

Ushbu jadvalga asosan, YaIM, sanoat, qurilish, bandlik, eksport va import ko‘rsatkichlarining holati 2000-2022-yillarda tahlil qilindi. Mamlakatimiz bo‘yicha 2000-yilda ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 31,0 %ga, 12,9 %ga, 38,4 %ga, 49,7 %ga, 10,2 %ga va 22,8 %ga teng bo‘lgan. Mazkur ko‘rsatkichlar 2022-yilga kelib esa, 51,8 %ga, 26,0 %ga, 71,5 %ga, 73,9 %ga, 29,6 %ga va 49,4 %ga teng bo‘lgan. 2022-yildan 2000-yilga nisbatan o‘zgarishga to‘xtaladigan bo‘lsak, mos ravishda 20,8 %ga oshgan, 13,1 %ga oshgan, 33,1 %ga oshgan, 24,2 %ga oshgan, 19,4 %ga oshgan va 26,6 %ga oshgan.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda kichik tadbirkorlikning ulushini oshirish uchun barcha tarmoqlardagi islohotlarni chuqurlashtirish, xususan, YaIM, sanoat, qurilish, bandlik, eksport, import ishlab chiqarish hajmlarini oshirish lozim. Bu esa mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish uchun texnoparklar, biznes inkubatorlar, ilmiy tadqiqot markazlari, ilmiy laboratoriyalar faoliyatiga alohida e‘tibor qaratishni taqozo qiladi. Ushbu tahlillar tarkibida hududlar tahlili ularning iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ana shu hududda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Ushbu hududlarda innovatsion infratuzilma elementlari hisoblangan texnopark, texnopolislar, biznes inkubatorlar, ilmiy tadqiqot institutlari faoliyati, transfer texnologiyalar markazlarini rivojlantirish va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda quyidagi holatlarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz:

- hududning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ekologik, ijtimoiy-madaniy sohalarini o‘rganish, rivojlanish parametrlarining istiqbolli rivojlanish maqsadlari va vazifalariga muvofiqligini aniqlash;

- hududning strategik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirishga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalari va dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- mintaqaviy salohiyatni ro‘yobga chiqarish va mintaqaning iqtisodiy tizimini rivojlantirish darajasini oshirish uchun investitsion siyosatning eng muhim yo‘nalishlarini belgilab olish;

- viloyatda rivojlanishdan orqada qolayotgan tarmoqlarni, ayniqsa sanoatni ichki va tashqi imkoniyatdan maksimal foylanib, investitsiyalar jalb qilish asosida tez sur‘atlarda rivojlantirish;

- hudud qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashganligini hisobga olib, mintaqada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulot holatiga keltiradigan eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi. 2022-yil 22-dekabr. Manba: <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

2. Davis S., Haltiwanger J., Schuh S. Small business and job creation: Dissecting the myth and reassessing the facts. Small business Economics, 1996, vol. 8 (4). pp. 297-315.

3. Eshov M. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari. – T.: Ma’naviyat, 2018. - 52 b.

4. Кремин А.Е., Мазилев Е.А. Оценка влияния малого бизнеса на социально-экономическое развитие регионов. // Вопросы территориального развития. 2018. № 1 (41). DOI: 10.15838/tdi.2018.2.41.2.

5. Лускатова О.В., Гленкова Е.О., Шалова В.А. Методический подход к экономической оценке влияния предпринимательства на динамику развития региона. // Фундамент. исслед. 2013. № 2–3. С. 594-598.

6. Булакина О.Н. Методика комплексной оценки предпринимательского потенциала муниципального образования. // Известия ИГЭА. 2009. № 4 (66). С. 63-67.

7. Глухих П.Л. Социально-экономическая оценка реализации предпринимательского потенциала в муниципальных образованиях. Автореферат дисс. на соис. уч. степ. канд. экон наук. Екатеринбург, 2013.

8. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

<p>С.Тошалиева</p> <p>Анализ ситуации по организации малого бизнеса в нашей стране</p> <p>Аннотация: в данной статье описаны особенности, преимущества и необходимость организации деятельности малого бизнеса в нашей стране и проанализировано его состояние.</p> <p>Ключевые слова: предпринимательство, малое предпринимательство, малый бизнес и частное предпринимательство, отрасли экономики, территория.</p>	<p>S.Toshaliyeva</p> <p>Analysis of the situation of organizing small business activity in our country</p> <p>Abstract: this article describes the characteristics, advantages, and necessity of organizing small business activities in our country and analyzes its status.</p> <p>Keywords: entrepreneurship, small entrepreneurship, small business and private entrepreneurship, economic sectors, territory.</p>
---	--

Имомназар Эгамбердиевич Турсунов – доцент Каршинского инженерно-экономического института

Кермен Антоновна Наминова – доцент Калмыцкого государственного университета

Тулкин Саидахмедович Шарипов – доцент Самаркандского института экономики и сервиса

РАЗВИТИЕ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

<p>Аннотация: одним из приоритетных направлений экономической теории реформы, проводимой в настоящее время в России и Узбекистане, является создание и развитие малого и среднего бизнеса. В статье освещена роль, сущность и значение цифровой и инновационной экономики в повышении конкурентоспособности частного предпринимательства, малого и среднего бизнеса. Показана новая совокупность экономических процессов в современной рыночной экономике, факторы и риски управления перехода к сетевым механизмам инновационного развития экономики регионов. Быстрое внедрение цифровых технологий в отрасли народного хозяйства и все сферы социальной сферы является приоритетом для всех стран. Основная цель перехода к цифровой экономике, это развитие народного хозяйства на оптимальном уровне. В статье проводится исследование развития малого и среднего предпринимательства в условиях новых вызовов и формирования цифровой экономики в региональном пространстве.</p> <p>Ключевые слова: предпринимательство, информатизация, компьютерная техника, цифровая экономика, экономика рисков, частное предпринимательство, малый и средний бизнес, конкурентоспособность, цифровая и инновационная экономика, цифровое предпринимательство, цифровизация, конкурентная среда.</p>
--

Введение. Одним из приоритетных направлений экономической реформы, производимой в настоящее время в России и Узбекистане, является становление и развитие малого и среднего бизнеса. Общество все больше осознает, что малый бизнес представляет собой одно из ключевых условий формирования рыночных механизмов и является составляющей частью современной рыночной системы. Бизнес является не только необходимым звеном в создании рыночной системы хозяйствования, но и наиболее существенным элементом в социальном преобразовании общества.

Указ Президента Ш.М.Мирзиёева «Об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы» является обеспечением ускоренного социально-экономического роста регионов путем повышения инновационной активности малого и среднего бизнеса. В процессе становления нового Узбекистана особое значение придается вопросам инновационного развития экономики регионов нашей страны. В стратегии развития Нового Узбекистана поставлены задачи «освоения инновационных технологий производства, которые дешевле существующих аналогов до 50% и создают добавленную стоимость в 2-3 раза выше цены сырья в районах, преобразуемых в инновационные регионы» [1].

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

06.03.2024 йилда теришга берилди. 29.03.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0024А/30.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.